

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov	
Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
	PEDAGOGIKA
T.Egamberdiyeva, O.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
U.Maqsudov, R.Rahmonova	
Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
M.Suyunova	
Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
N.Saidova, B.Abdullayeva	
Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli.....	20
X.Tojiboyeva	
O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
A.Kalliyev	
Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
I.Usmonaliyev	
Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
	FALSAFA, SIYOSAT
A.Yuldashov	
O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
Q.Aliqulov	
Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
	TARIH
X.Boymirzayev, Z.Jobborov	
Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
X.Mamajonov	
Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov	
Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
A.Abduxalimov	
Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
I.Yusupov	
O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
I.Turdiyev	
Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari	67
Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov	
O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
	ADABIYOTSHUNOSLIK
L.Axmadaliyev	
Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85

**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINING EKOESTETIK
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TAHLILY OMILLARI.**

**АНАЛИТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**ANALYTICAL FACTORS DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF FUTURE
PRESCHOOL EDUCATION SPECIALISTS**

Turg'unoy Egamberdiyeva Axmadjonovna¹, Oygul Ashurova Anvarjonovna²

- ¹Turg'unoy Egamberdiyeva Axmadjonovna –Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori professori
²Oygul Ashurova Anvarjonovna –Farg'ona Davlatuniversiteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada ekologiya, ekoestetika, ekoestetik tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida ekologik-esthetik tarbiyani rivojlantirish va shakllantirish, kelajak avlodlarga tabiat in'om etgan tabiiy boyliklarni asrab-avaylash, himoya qilish, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash haqida, hukumatimiz tomonidan ekologik-estetic tarbiya borasidagi chiqarilgan qonunlar asosida uzluksiz ta'lim sohasidagi qilinayotgan va qilinishi kerak bo'lgan vazifalar haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

В статье рассматриваются экология, экоэстетика, экоэстетическое воспитание, факторы развитие и формирование эколого-эстетического воспитания детей дошкольного возраста, сохранение и защита природных богатств, подаренных природой будущим поколениям, воспитание в духе любви к природе, изданные нашим правительственные постановления об эколого-эстетическом воспитании, на основании которых идёт речь о задачах, которые включаяся и системе непрерывного образования.

Abstract

The article discusses ecology, eco-aesthetics, eco-aesthetic education, the development and formation of ecological-aesthetic education in the education of preschool children, the preservation and protection of the natural resources gifted by nature to future generations, and education in the spirit of love for nature, the laws issued by our government on ecological-aesthetic education on the basis of which there is talk about the tasks that are being done and should be done in the field of continuous education.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekoestetika, ekoestetik bilim, ekologik-ekoestetik ta'lim omillari, ekologik ta'limning asosiy tamoyillari.

Ключевые слова: экология, экоэстетика, экоэстетические знания, эколого-экоэстетические воспитательные факторы, основные принципы экологического образования.

Key words: ecology, eco-aesthetics, eco-aesthetic educational factors, eco-aesthetic education, basic principles of environmental education.

KIRISH:

Ekologiya yunoncha "oikos" so'zidan olingan bo'lib, "tom" yoki "uy" degan ma'noni anglatadi. Ekologiyani nemis olimi Ernest Gekkel birinchi bo'lib fanga kiritgan. Ekologiya boshqa fanlar qatori hamma fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning tarmoqlari: o'simliklar ekologiyasi, zoekologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi kabilardir. Har bir tarmog'ining o'z vazifasi bor. Tarmog'iga ko'ra har biri ma'lum ob'ektning yashash sharoitlarini o'rganib, yashash normalarining optimal darajasini aniqlab beradi. Shu asnoda bizga ekologik bilimlar etkazib beriladi, lekin bular etarli emas. Zamon boshqa yo'nalishlarda ham ishlar olib borishni talab qilmoqda. Bu ekologik va ekoestetik tarbiya masalasidir.

Insoniyatni xavfga solayotgan eng tashvishli muammolardan biri – ekologik vaziyat. Insoniyatning tabiat in'om etgan tabiiy boyliklaridan haddan tashqari ko'p foydalanishi tufayli sayyoramiz xavfli vaziyatga tushib bormoqda, ekologik balans muvozanati yo'qolmoqda. Sayyoramizdagi noyob o'simlik va hayvonlar turlari yo'qolib bormoqda, tabiiy foydali qazilmalar zahirasi tugab bormoqda, kundun-kunga tabiatning turli yo'llar bilan (masalan, zavod-fabrikalardan, avtomobillardan chiqayotgan zararli gazlar orqali) ifloshlanishi ortib bormoqda. Bularning hammasi ekologik, ekoestetik bilimning etishmasligidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik, ekoestetik bilimlarni o'rgatish uchun tarbiyachida ekologik, ekoestetik bilim etarli bo'lishi kerak. Bunda tarbiyachi bolalarni o'simliklar, hayvonlar, iqlim sharoitlari, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish orqali tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida "U kim, bu nima?", "Ertaklar olamiga sayohat" kabi diafilmlar, "Bargiga qarab top", "Ta'riflangan o'simlik yoki mevani top", "O'simliklarni nomiga qarab top" kabi muammoli vaziyatlardan foydalanish ham katta samara beradi. Bu metodlar orqali bolalar u yoki bu mamlakat o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiati, iqlimi va boshqa tabiiy sharoitlari bilan tanishadilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga quyidagi yo'nalishlar orqali ekologik va ekoestetik bilimlar shakllantirib boriladi:

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish, undagi voqea-hodisalarning bir-biriga bog'liqligi haqidagi bilimlarni o'rgatish;

Bolalarda tabiatni asrab-avaylash, undagi boyliklar zahirasini oshirishga o'z hissasini qo'shish faoliyatini shakllantirish;

Bolalarni Vatanimiz tabiatini asrab-avaylash, uni qo'riqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirish.

Ekoesteik tarbiya asosan tabiat haqidagi tasavvurni shakllantirish uchun mashg'ulotlarda o'rgatib boriladi. Maktabgacha ta'lim tizimida "Uchinchi ming yillikning bolasi" (2000 yil) dasturi bo'yicha o'tkaziladigan mavzularga qo'shimcha sifatida o'lkamizga xos bo'lgan jonli va jonsiz tabiat, o'simliklar va hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlar shakllantirib boriladi.

Dasturning mohiyati shundan iboratki, bolalarni jismoniy rivojlantirish, bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish, ma'naviy-madaniy etuklik borasida maktabgacha yoshdagi bolalarni yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik-ekologik tarbiyasini shakllantirish vazifasi bo'lib, u xatiga quyidagilar yo'nalishlarda tadbiq etiladi:

EKOLOGIK-EKOESTETK TARBIYANING TARKIBIY QISMLARI:

1. Ekologik-ekoestetk bilimlarni shakllantirishga o'qitish.
2. Tabiatga qiziqish, tabiat haqidagi bilimlar.hadi
3. Tabiatga munosabat hissiyotini shakllantirish.
4. Tabiatga ekologik munosabatni tarbiyalash.
5. Ekologik-ekoestetk tafakkurni takomillashtirish.
6. Tabiatga munosabat motivlari.

Ekologik-ekoestetk ta'lim – o'quv-tarbiya faoliyatini shakllantirish va o'quv-tarbiya davomida kelib chiqadigan muammolarni hal qilish, innovatsion texnologiya metodlaridan foydalangan holda to'g'ri echim topish. Ekologik-ekoestetik bilim – muayyan ko'nikma va malakalarni o'rgatish, talab etish, shu haqidagi dunyoqarashini va bilish faolligini rivojlantirishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ekologik-ekoestetik tahlillar doirasida tarbiyani avvalo oiladan boshlash kerak ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Tabiat bilan tanishtirish ekologiya inqiroziga qarshi kurashning ibtidosidir. Masalan, Namangan viloyatida ko'klamgi birinchi chechak - "gulbarra" ochilganda "Bo'ka-bo'kavoy marosimi o'tkaziladi. "Gulbarra" sap-sariq rangli lolaga o'xshash 'gulning nomi bo'lib, bu gulning ochilganini ko'rgan bolalar dala-qirlarga oshiqadilar. Ular gulbarradan bir dasta terib olib, kichkina tayoqchani uchiga bog'laydilar, va uni ko'tarib uyma-uy yuradilar. Har bir xonadon eshigini taqillayotgan paytda ular:

Bo'ka, bo'kabab baytilla,
Uyingizga choch tilla,
Xudoyim o'g'il bersin,
Uning oti Rahmatilla,
O'ltirib chiqing,
Yog'och tovoqni

To'ldirib chiqing, - deb qo'shiq aytishadi. [1]

Chunki yoshlikdanoq ekologik-ekoestetk tarbiya olgan bola tabiatga hurmat bilan qaraydi. Unda tabiatni ifloslantirish, o't-o'lanlarni payhon qilish, gullarni yulish kabi holatlarga nafrat bilan qarash hissiyoti uyg'onib boradi. Bu holatda bola tabiatga etkazilgan zarar haqida tashvishlanish, tabiiy sharoitda omon qolish qiyin bo'lgan hayvonlar uchun rahm-shafqat, o'simliklar dunyosiga

PEDAGOGIKA

hurmat bilan qarash, bizga in'om etilgan tabiiy resurslar uchun atrof-muhitga minnatdorchilik ruhida tarbiyalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik-ekoestetik ta'lim asosan atrof-muhitga – er, suv, o'simlik, hayvonot dunyosiga muhabbat, ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Ekologik-ekoestetik ta'limning asosiy vazifasi bolalarni tabiatni sevishtga, uni asrab-avaylashga, himoya qilishga qaratilgan.

XULOSA

“O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorga ko‘ra:

“Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Tabiatni muhofaza qilish to‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tadbiiq qilish va shu asosda ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish;

Ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

Ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi ma’suliyatini kuchaytirish;

Ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

Ekologik ta’lim suratini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish” [2] hududlarda ekologik muammolarga echim topishda ta’lim tizimi orqali yondashish, o’sib kelayotgan yosh avlodning ekologik bilimlarini rivojlantirish, ularning ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirishda katta samara beradi.

Adabiyotlar (References)

1. Пешерева Е.М. Некоторые игры среди оседлого населения Туркестана Бюллетень САГУ. Выш.11. - Ташкент, 1925 - С.92).
2. Lex.uz. 27.05.2019 йилдаги 434-сон. “ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСИНИ ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДА”
3. <https://uz.unistica.com/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-ekologik-talim/>
4. <https://fayllar.org/3-variant-i--topshiriq-maktabgacha-yoshdagi-bolalarga-ekologik.html>
5. Салаев Ф. Ҳозирги ўзбек илмий фантастик адабиётида инсон ва табиат муаммолари: Фил. фан. ном. дисс автореф. - Нукус, 1993. – Б. 128;
6. Жўраев М. Наврўз кўшиқлари. -Т.: А. Навоий номли Ўзб. Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007;
7. Қодиров П. “Қалб кўзлари”. –Т.: Маънавият, 2001; Шермухамедов П. Сен ёнмасанг, мен ёнмасам... -Т.: 1990; Шайхов Ҳ. Илмийлик ва афсонавийлик // Ёшлик альманахи. - 1981. - II-сон.
8. Ashurova, O. A. (2021). AESTHETIC EDUCATION AS A FACTOR OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN A PEDAGOGICAL UNIVERSITY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 425-427.
9. Ashurova, O. (2021). Analysis of foreign experience on the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1478-1484.
10. Ashurova, O. A. (2021). SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 46-52.
11. Ashurova, O. (2021, December). THE IMPORTANCE OF AESTHETICITY OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN THE ACTIVITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 88-90).
12. Anvarjonovna, A. O. (2021). Factors for the Development of Ecoesthetic Culture of Future Preschool Educational Professionals. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(5), 162-164.
13. Anvarjonovna, A. O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 2, pp. 254-258).
14. Anvarjonovna, A. O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 2, pp. 254-258).
15. Anvarjonovna, A. O. (2021). AESTHETIC CULTURE OF THE EDUCATOR. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences* (pp. 253-255).